

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY-MA'RIFIY SOHADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Sadirova Mubina Shavkatjon qizi

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Islomshunoslik fakulteti
Islomshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi Telefon raqam: +998970952050*

Muhabbat Agzamova

Ilmiy rahbar: O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrasini mudiri

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari, ularning huquqiy asoslari hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda vijdon erkinligini ta'minlash, diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining mazmuni yoritilib, diniy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ma'rifiy islom tamoyillarini targ'ib etish, "Jaholatga qarshi ma'rifat" konsepsiyasining amaliy ahamiyati hamda xalqaro diniy diplomatiya yo'nalishidagi tashabbuslar ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *diniy-ma'rifiy islohotlar, vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik, ma'rifiy islom, diniy diplomatiya, konfessiyalararo totuvlik, diniy ta'lim, UNESCO.*

Abstract: *This article analyzes the main directions of reforms implemented in the Republic of Uzbekistan in the field of religious and educational affairs, their legal foundations, and their significance for social development. The study highlights the content of state policy aimed at ensuring freedom of conscience and strengthening religious tolerance and interfaith harmony. It also examines, based on scientific sources, the modernization of the religious education system, the promotion of the principles of enlightened Islam, the practical significance of the "Against Ignorance through Enlightenment" concept, and initiatives in the field of international religious diplomacy.*

Keywords: *religious and educational reforms, freedom of conscience, religious tolerance, enlightened Islam, religious diplomacy, interfaith harmony, religious education, UNESCO.*

Аннотация: *В данной статье анализируются основные направления реформ, осуществляемых в Республике Узбекистан в религиозно-просветительской сфере, их правовые основы, а также значение для развития общества. В исследовании раскрывается содержание государственной политики, направленной на обеспечение свободы совести и укрепление религиозной толерантности и межконфессионального согласия. На основе научных источников рассматриваются модернизация системы религиозного образования, продвижение принципов просвещённого ислама, практическая значимость концепции «Борьба с невежеством посредством просвещения», а также инициативы в области международной религиозной дипломатии.*

Ключевые слова: религиозно-просветительские реформы, свобода совести, религиозная толерантность, просвещённый ислам, религиозная дипломатия, межконфессиональное согласие, религиозное образование, ЮНЕСКО.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Turli konfessiyalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, diniy tashkilotlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va xalqaro miqyosda O‘zbekistonning ma‘rifiy islom tamoyillariga asoslangan siyosatini targ‘ib etish ushbu islohotlarning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonlar jamiyat ma‘naviy hayotining yuksalishiga, mamlakatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida diniy-ma‘rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy huquqiy negizi mamlakat Konstitutsiyasi hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda o‘z ifodasini topgan. Mazkur hujjatlar fuqarolarning diniy e‘tiqod erkinligini ta‘minlash, konfessiyalararo bag‘rikenglikni mustahkamlash va davlat hamda din munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e‘tirof etilgan bo‘lib, vijdon erkinligi fundamental konstitutsiyaviy huquqlardan biri sifatida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 35-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”²⁰, – deb belgilangan. Mazkur norma fuqarolarning diniy tanlov erkinligini ta‘minlash bilan birga, diniy majburlashning har qanday shakliga qarshi huquqiy kafolat vazifasini bajaradi. Konstitutsiyada davlatning dunyoviylik tamoyiliga asoslanishi ham muhim prinsip sifatida belgilangan. Davlat diniy tashkilotlarning ichki faoliyatiga aralashmaydi, diniy tashkilotlar esa davlat funksiyalarini bajarmaydi va barcha diniy konfessiyalar qonun oldida teng ekani qayd etilgan²¹. Mazkur yondashuv O‘zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta‘minlash, turli din vakillarining tinch va hamjihat yashashi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarning millati, tili, dini va e‘tiqodidan qat‘i nazar teng huquqliligi mustahkamlab qo‘yilgan. Shu asosda mamlakatda turli konfessiyalar vakillarining erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy sharoit yaratilgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda islom dini bilan bir qatorda pravoslavlik, katoliklik, protestantlik, yahudiylik, buddaviylik kabi diniy konfessiyalar ham faoliyat olib bormoqda. Din ishlari bo‘yicha qo‘mita ma‘lumotlariga ko‘ra, respublikada 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2300 dan ortiq diniy tashkilot faoliyat yuritadi. Bu esa mamlakatda diniy tolerantlik siyosati amaliy jihatdan ta‘minlanayotganini ko‘rsatadi.

Diniy sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri 2021-yil 5-iyulda yangi tahrirda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-699-son Qonun hisoblanadi²². Qonunning 4-moddasi birinchi va ikkinchi bandlarida “Vijdon erkinligi – bu fuqarolarning xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi

²⁰ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси <https://lex.uz/uz>

²¹ O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/uz>

²² O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/uz>

dinga e'tiqod qilmaslik bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi"²³, - deya belgilab qo'yilgan.

Qonunning asosiy maqsadi vijdon erkinligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslarini belgilashdan iborat bo'lib, qonunda fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar tengligi, diniy tashkilotlarni tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi, diniy ta'lim masalalari hamda missionerlik faoliyatiga oid normalar belgilab berilgan²⁴. Qonunning yangi tahriri xalqaro huquq normalari va inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan tamoyillarga mos ravishda takomillashtirilgani bilan ahamiyatli hisoblanib, ayrim ma'muriy tartiblarning soddalashtirilishi, fuqarolarning diniy erkinliklarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlarning joriy etilishi diniy siyosatni liberallashtirish yo'lidagi muhim qadam sifatida baholanmoqda.

Diniy bag'rikenglik siyosati O'zbekiston tashqi siyosatida ham muhim o'rin egallaydi. 2018-yil 12-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan bo'lib, rezolyutsiyaning asosiy maqsadi diniy bag'rikenglikni ta'minlash, ta'lim va ma'rifat orqali ekstremizm hamda zo'rvonlikning oldini olishdan iborat edi. Ushbu rezolyutsiya BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi²⁵.

So'nggi yillarda O'zbekistonda diniy-ma'rifiy siyosat "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida olib borilmoqda. Bu yondashuv diniy savodxonlikni oshirish, yoshlarni ekstremistik va radikal g'oyalardan himoya qilish, milliy, diniy qadriyatlarni uyg'un rivojlantirishga qaratilgan. Mamlakatda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar huquqiy-demokratik tamoyillarni mustahkamlashga, jamiyatda bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

"Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyilini amalga oshirish maqsadida O'zbekistonda bir qator ilmiy va ma'rifiy institutlar tashkil etildi. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy markazi va Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati aynan islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini ilmiy asosda tadqiq qilish va targ'ib etishga qaratilgan. Diniy-ma'rifiy adabiyotlarni nashr qilish, qo'lyozmalarni tadqiq etish va xalqaro ilmiy konferensiyalarni tashkil etish ishlari ham keng yo'lga qo'yilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda diniy ta'lim tizimini qayta tiklash va uni huquqiy jihatdan tartibga solish jarayoni boshlangan bo'lsa, 2017-yildan keyin ushbu sohada tizimli modernizatsiya bosqichi yuzaga keldi. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi diniy ta'lim muassasalarini zamonaviy ta'lim standartlari asosida rivojlantirish, diniy va dunyoviy bilimlar integratsiyasini ta'minlash hamda xalqaro talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat bo'ldi. Diniy ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni²⁶ muhim

²³ https://bukhari.uz/?p=16466&utm_source

²⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/06/law/>

²⁵ Sobirova M, Absattorov B. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi [Matn]: darslik. - Toshkent: Bookmany print, 2024. - B. 49.

²⁶ https://nrm.uz/content?doc=543961_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidentining_16_04_2018_y_pf-5416-son_diniy-marifiy_soha_faoliyatini_tubdan_takomillashtirish_chora-tadbirlari_to%E2%80%98risidagi_farmoni&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur farmon asosida Toshkent islom universiteti va O'zbekiston islom akademiyasi negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. Farmonda diniy ta'lim tizimini xalqaro ilmiy standartlarga moslashtirish, diniy va dunyoviy fanlar uyg'unligini ta'minlash va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Mazkur islohotlar natijasida O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi diniy ta'lim muassasalari soni oshdi. 2017-yilgacha respublikada 10 ta diniy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, keyingi yillarda Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi hamda yangi madrasalarning tashkil etilishi natijasida ularning soni 14 taga yetdi. Shundan 4 tasi oliy, 10 tasi o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalari hisoblanadi²⁷.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida kredit-modul tizimi elementlarini joriy etish, elektron kutubxona bazalarini shakllantirish va xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan akademik hamkorlikni kengaytirish ishlari ham olib borildi. Akademiya Turkiya, Misr, Malayziya, Rossiya va boshqa davlatlarning nufuzli universitetlari bilan qo'shma ilmiy loyihalar va akademik almashinuv dasturlarini amalga oshirmoqda.

2023-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining diniy-ma'rifiy sohadagi tashqi siyosati xalqaro diniy diplomatiya, madaniy-gumanitar hamkorlik hamda bag'rikenglik tamoyillarini ilgari surish bilan xarakterlandi. Mazkur davrda mamlakat tomonidan diniy bag'rikenglik, madaniy merosni asrash va ma'rifiy islom g'oyalarini xalqaro maydonda targ'ib qilishga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. Bu jarayon O'zbekistonning xalqaro imiji va "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasidagi ochiq tashqi siyosati bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda.

2025-yilda O'zbekiston xalqaro diniy diplomatiya tarixida muhim voqealardan biri yuz berdi. Samarqand shahrida UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkazildi. Mazkur sessiya UNESCO tarixida so'nggi qariyb 40 yil ichida ilk bor Parijdan tashqarida va Markaziy Osiyo hududida tashkil etildi. Konferensiyada 190 dan ortiq davlat delegatsiyalari, xalqaro ekspertlar va diplomatik korpus vakillari qatnashdi²⁸. Tadbir davomida madaniy merosni saqlash, sun'iy intellekt etikasi, ta'lim, dinlararo muloqot va global madaniy hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

UNESCO Bosh konferensiyasining Samarqandda o'tkazilishi O'zbekistonning xalqaro madaniy-gumanitar diplomatiyadagi mavqeini sezilarli darajada kuchaytirdi. 2024-yil 15-martdagi PQ-128-son Prezident qaroriga²⁹ muvofiq ushbu sessiyani yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha maxsus tashkiliy qo'mita tuzildi va davlat miqyosida tayyorgarlik ishlari olib borildi. Qarorda UNESCO bilan hamkorlikni kengaytirish, xalqaro madaniy forumlarni rivojlantirish va O'zbekistonning moddiy va ma'naviy merosini targ'ib qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi UNESCO bilan hamkorlik doirasida moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrash, ularni xalqaro miqyosda targ'ib qilish hamda tarixiy-madaniy maskanlarning turizm salohiyatini oshirish borasida izchil siyosat yuritmoqda.

²⁷ <https://yuz.uz/uz/>

²⁸ <https://www.unesco.org/en/general-conference/43/practical-guide>

²⁹ 2025-yilda Yunesko bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida otkazilishiga tayyorgarlik ko'rish boyicha chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/uz>

Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarda xalqaro ilmiy-madaniy hamkorlikni rivojlantirish, ularni jahon sivilizatsiyasining muhim markazlari sifatida mustahkamlashga qaratilgan qator loyihalar amalga oshirilmoqda. ICESCO, Organisation of Islamic Cooperation va Organization for Security and Cooperation in Europe bilan diniy bag'rikenglik, ma'rifiy diplomatiya va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish yo'nalishlarida hamkorlik izchil ravishda kengaymoqda. Mazkur siyosatning amaliy ifodasi sifatida Islom sivilizatsiya markazi tashkil etildi.

Markaz ilmiy-tadqiqot, muzey va ma'rifiy platforma sifatida O'zbekistonning boy islomiy-ma'naviy merosini xalqaro hamjamiyatga namoyish etishga xizmat qilmoqda. 2026-yilda mazkur markaz dunyodagi eng yirik islom sivilizatsiyasi muzeyi sifatida "Guinness World Records" ro'yxatiga kiritilgani O'zbekistonning madaniy diplomatiya va tarixiy merosni asrash borasidagi sa'y-harakatlarining xalqaro e'tirofi bo'ldi³⁰.

Imom Buxoriy yodgorlik majmuasida keng ko'lamli rekonstruksiya amalga oshirilib, u zamonaviy ziyorat va ilmiy-ma'rifiy majmua sifatida qayta shakllantirildi. Rekonstruksiya natijasida majmuaning infratuzilma imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi, kunlik ziyoratchilarni qabul qilish quvvati bir necha barobar oshib, u Markaziy Osiyodagi yirik diniy-turistik markazlardan biriga aylandi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanib, mamlakatning xalqaro madaniy va ziyorat turizmi markazi sifatidagi mavqei sezilarli darajada mustahkamlandi. 2025-yilda respublikaga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 11,7 million nafarga yetib, tarixiy rekord qayd etildi³¹.

Mazkur ko'rsatkich mamlakatda amalga oshirilayotgan ochiq tashqi siyosat, madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, ziyorat turizmini rivojlantirish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning amaliy natijasi sifatida baholanmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar milliy taraqqiyotning muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Ushbu jarayonlarda inson huquqlari, vijdon erkinligi va bag'rikenglik tamoyillarining ustuvor ahamiyat kasb etishi mamlakatda fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Diniy sohada olib borilayotgan ochiq va muvozanatli siyosat turli konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini ta'minlash bilan bir qatorda, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashning muhim omiliga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz>
2. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/uz>
3. 2025-yilda Yunesko bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida otkazillishiga tayyorgarlik ko'rish boyicha chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/uz>

³⁰ <https://dunyo.info/en/news/>

³¹ <https://stat.uz/oz/19-news/committee-news>

4. Sobirova M, Absattorov B. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi [Matn]: darslik. - Toshkent: Bookmany print, 2024. - B. 49. 304 b.
5. <https://bukhari.uz>
6. <https://www.gazeta.uz>
7. <https://nrm.uz>
8. <https://yuz.uz/uz>
9. <https://www.unesco.org>
10. <https://dunyo.info/en/news/>
11. <https://stat.uz>